

DUNYONING YANGI SIYOSIY TARTIBOTI KONTURLARI

Ummataliyev Alisher

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi
toshpolatovsalohiddin328@gmail.com

Annotatsiya: Yangi-XXI-asrga kirib kelgan dunyoda globalizatsiya va keskin geosiyosiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. "Sovuq urush" tugagan 1991- yildan boshlab dunyoda yagona "superkuch" ga aylangan Amerika Qo'shma Shtatlari yangi davrga kelib o'zining "unipolyar",yani yagona yetakchi davlat maqomini BRICS, ASEAN, SHHT,CSTO kabi yirik va qudratli tashkilotlarga birlashib global siyosat yuritayotgan davlatlarga bo'shatib bermoqda va endi dunyoda "multipolyar", yani ko'pqtibli tizim shakllanmoqda. Shuningdek zamonaviy texnologiyalar,ixtirolarning ko'payishi ham yangi tartibot davrining muhim xususiyatiga aylanmoqda. Quyida yangi tizimning shakllanishi, asosiy xususiyatlari va oqibatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: geosiyosat, BMT,global janub tashkilotlari, "unipolar", "multipolyar", ko'psivilizatsiyaviy, de-dollarizatsiya, betaraflik siyosati, multivektor siyosat, janub-janub hamkorligi.

Аннотация: В мире, вступившем в новый XXI век, происходят глобализация и резкие геополитические изменения. С 1991 года, когда закончилась «холодная война», Соединённые Штаты Америки, ставшие единственной «сверхдержавой», в новую эпоху начали уступать свой «униполярный», то есть статус единственного лидера, государствам, объединённым в крупные и мощные организации, такие как БРИКС, АСЕАН, ШОС, ОДКБ, ведущим глобальную политику, и теперь в мире формируется «мультиполярная», то есть многополярная система. Кроме того, рост современных технологий и изобретений также становится важной характеристикой эпохи нового порядка. Ниже анализируются формирование новой системы, её основные особенности и последствия.

Ключевые слова: геополитика, ООН (Организация Объединённых Наций), организации Глобального Юга, «однополярный», «многополярный», многоцивилизационный, дедолларизация, политика нейтралитета, многовекторная политика, сотрудничество «Юг–Юг».

Annotation: In the world entering the new 21st century, globalization and sharp geopolitical changes are taking place. Since 1991, when the Cold War ended, the United States of America, which had become the sole "superpower," is now yielding its "unipolar" status—that is, the position of the sole leading



state—to countries united in large and powerful organizations such as BRICS, ASEAN, SCO, and CSTO, which are conducting global politics, and a "multipolar," that is, multi-polar system is now forming in the world. Additionally, the proliferation of modern technologies and inventions is also becoming a key characteristic of the new order era. Below, the formation of the new system, its main features, and consequences are analyzed.

Keywords: *geopolitics, the UN (United Nations), Global South organizations, "unipolar," "multipolar," multi-civilizational, de-dollarization, neutrality policy, multi-vector policy, South–South cooperation.*

KIRISH

O'tgan asrning 50- yillaridan boshlab 1991- yil SSSR tarqalib ketgunga qadar davom etgan "Sovuq urush" o'zidan keyin harbiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan qudratli AQSH hamda sotsializm inqirozidan zaiflashgan Rossiyani qoldirdi. Biroq, Amerikalik olim Samuel Fillips Huntington aytganidek "AQSHning dunyoda yakka hukmronligi uzoq davom etmadi". U va u boshchiligidagi G'arb (asosan Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari) yangi davrda ham "superkuch" maqomiga eng loyiq deya etirof etilmoqda. Shunga qaramasdan Steve Smith, Farid Zakariyo kabi mashhur xalqaro munosabatlar mutaxassislari bu jarayonning 2001- yil 11- sentyabr voqealari va Iroq hamda Afg'onistonda keltirib chiqarilgan muammolar sabab yakunlanganini, dunyo ko'p qutblilik sari yurayotganini ta'kidlashmoqda. Iqtisodiy jihatdan shiddatli o'sish davrini boshidan kechirayotgan Xitoy (asosan 1980-yillardan boshlab), dastlabki davrda qarzga botib, obro'sini, ta'sirini yo'qotganiga qaramay yangi asrga yangi rahbar (Vladimir Putin) va yangi strategik maqsadlar bilan kirib kelgan Rossiya, inklyuziv institutlar rivojiga tayanib katta qudrat shakllantirgan Hindiston, Braziliya va albatta zamonaviy taraqqiyot modeli bo'lishga ulgurgan Yaponiya AQSH, u rahbarligida butun G'arb olamiga har sohada muqobil sifatida ko'rilyapti. Quyida ularning yangicha siyosatlari va zamonaviy dunyo tartibotidagi o'rinlarini tavsif etamiz.

Kornell universiteti professori Jonatan Kirshner o'zining 2014- yilda yozgan "Iqtisodiy inqirozdan keyin Amerika qudrati" nomli kitobida aytganidek 2008- yilgi iqtisodiy inqiroz ko'p tomondan AQSHning gegemonligi zaiflashib, dunyoda yangi kuch markazlari shakllanishiga sabab bo'ldi. Masalan sotsiologik tuzum bilan ham dunyo iqtisodiyotining 17-18 foizini boshqarayotgan Xitoy yangi davrda qayta tiklanadigan energiya va yashil texnologiyalar, elektr transport vositalari, ilmiy tadqiqot va nashrlar kabi ko'p sohalarida AQSHdan dominantlikni tortib olishga ulgurdi. O'zini yangi qudrat markazi, "adolatli raqobatchi" deya ta'riflayotgan Xitoy ko'p qutbli tizimdan va yangi tartibotdan manfaatdor davlat ekani ma'lum bo'lmoqda. Bundan tashqari bugungi



dunyoning eng katta davlati bo'lgan Rossiya G'arb bilan faol raqobat qilmoqda va eng muhim, shu bilan birga eng xavfli, u Global Janub davlatlarini AQSHga qarshi birlashtirishga muvaffaq bo'lmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan deya ta'riflanuvchi O'zaro Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (ODKP)ga o'xshash harbiy-siyosiy tashkilotlar AQSH va NATO dominantligiga alternativ sifatida ko'rilyapti. Shuningdek Turkiya, Eron, Pokiston, Venesuela, Indoneziya kabi davlatlar ham ayrimlari siyosiy, ayrimlari esa iqtisodiy jihatdan G'arb yakka qudratiga tahdid solib, yangi tartibotda "multiplex" siyosatning yorqin namunasi bo'lmoqda. 2022- yildan buyon davom etayotgan Rossiya-Ukraina urushi va unga nisbatan mashhur diplomat Genry Kissenjerning "Urush Ukrainani NATOga yaqinlashtirdi... Neytrallik endi ma'no bermaydi" deya Ukrainani NATOga qo'shishni qo'llab-quvvatlab aytgan so'zlari hamda unga qarama qarshi ravishda Rossiya prezidenti Vladimir Putinning "AQSH va uning ittifoqchilari qudrati XX-asr so'ngida cho'qqisiga chiqdi. Lekin hech qanday kuch dunyoni abadiy nazorat qila olmaydi" degan so'zlari dunyo ko'p qutbli tizim sari borayotganini, bu yangi tartibotning muhim konturi ekanini isbotlaydi.

Globalizatsiyaning eng asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan xalqaro tashkilotlar yangi davrga kelib avvalgi ahamiyatini yo'qotmoqda. BMT, JST kabi iqtisodiyot, siyosat va moliyada global tartibni saqlab kelgan dunyo miqyosidagi tashkilotlar bugunga kelib ko'plab tanqidlarga duchor bo'lmoqda. Masalan "yumshoq kuch" konsepsiyasi muallifi Jozef Nay yangi dunyo tartiboti to'g'risida gapirar ekan, "Eski institutlar hozirgi geosiyosiy o'zgarishlarga mos kelmaydi-ularni yangilash orqali global muammolarni hal qilish mumkin" degan edi. Yani mutlaqo yangi - ko'psivilizatsiyaviy tartib qaror topgan dunyo endi eski liberalizm davridagi qoidalar asosida ishlaydigan tashkilotlarga muxtoj emas va bu zaif aloqaga, davlatlararo munosabatlarning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek kuchlar bo'linib ketgan sharoitda butun dunyo manfaatlarini bir joyga to'plash, manfaatlari bir biriga qarama-qarshi bo'lgan davlatlarning muammolarini konsensus asosida hal etish endilikda juda mushkul. Bunga misol sifatida esa "multiplex dunyo" konsepsiyasi muallifi Amitav Acharyaning "Liberal gegemoniya tugagach, biz multiplex dunyo tartibiga o'tmoqdamiz-unda bitta gegemon emas, balki ko'p markazli, turli aktorlar va institutlar mavjud. Eski liberal tartibining institutlari (BMT, JST) endi yetarli emas, ular yangi kuch markazlarining (Xitoy, Hindiston) talablariga moslashishi kerak" degan so'zlarini keltirishimiz mumkin.

Dunyo bo'ylab yangi kuch markazlari shakllangan bugungi davrda, shu paytgacha yakka "superqudratli" davlat bo'lib kelgan AQSHga qarshi ushbu yangi markazlar o'zlarining tashkilotlarini tuzishi, jarayonlarda faollikni oshirishi tabiiy hol. BRICS, SHHT, CSTO kabi tashkilotlar yangi dunyo tartiboti davrida G'arb dunyosining shu



yo'sindagi tashkilotlariga muqobil sifatida ko'rilyapti. Yani ko'p qutbli dunyoda bir manfaatga ergashgan davlatlar birlashib, o'z imkoniyatlarini namoyish qilishmoqda. Masalan yangi kuch markazlarining ko'pchiligini (Rossiya, Braziliya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Afrika Respublikasi, Misr, Efiopiya, Eron, Saudiya Arabistoni) o'zida jamlagan BRICS tashkiloti iqtisodiy hamkorlik, Yangi Rivojlanish Banki bilan birga de-dollarizatsiya tizimini yaratishni ham maqsad qilgan bo'lib, bu AQSHning moliyaviy gegemoniyasiga bevosita tahdid hisoblanadi. Janubiy Afrika Respublikasi prezidenti Cyril Ramaphosa sammitlardan birida shunday degan edi: "BRICS Global Janubning oldingi saflarida turib, global boshqaruv islohoti oldinga siljishi uchun mas'uliyatli harakat qilishi kerak". Bu gaplardan shu ma'lum bo'ladiki, endi dunyoda yirik, barcha davlatlarni birlashtirgan global tashkilotlar emas, balki manfaatlari bir biriga mos keladigan, iqtisodiy, siyosiy, harbiy va madaniy masalalarda yakdil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega davlatlarga yangi kuch markazlarini shakllantirishi, ko'p qutbli dunyo tizimini rivojlantirishi mumkin.

Xulosa

YANGI dunyo tartiboti bir qator muhim va o'zgacha konturlarga ega. Avvalo bugungi davr siyosati juda murakkab, yani bugun dunyoda XX-asrning so'ngi 10 yilidagi singari AQSHga o'xshash yagona "superkuch" o'rniga, yangi manbalar, yangi tizimlarga tayanuvchi yangi kuch markazlari shakllangan. Xitoy, Hindiston, Rossiya kabi turli sohalarda yetakchilikka erishgan davlatlar BRICS, SHHT, CSTO kabi qudratli, AQSH va u boshchiligidagi G'arb olamiga munosib alternativa bo'la oladigan tashkilotlarni vujudga keltirishmoqda. Shu kungacha uzoq yillar mobaynida dunyo siyosatida muvozanatni taminlab kelgan BMT, JST ga o'xshash global tashkilotlar endi faqat bitta gegemon davlatni emas, balki bir nechta undan kam bo'lmagan davlatlarning manfaatlarini ham hisobga olib faoliyat yuritishga to'g'ri kelgani holda, chuqur islohotga muhtoj. Hanuz AQSH va uning ittifoqchilari o'z qudratini yo'qotmagan bo'lsada, yangi davr allaqachon o'zi bilan yangi kuchlarni olib keldi va bu yangi tartibot konturlarining muvozanatchisi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fareed Zakaria. The Post-American World (updated edition, 2011).
2. Amitav Acharya. The End of American World Order (2nd edition, 2018).
3. S. Hantington. "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" kitobi.
4. "Politics" Andrew Heywood
5. "Mamlakatlar tanazzuli sabablari" Jeyms Robinson va Daron Ajemog'lu

